




2019-yilning yanvar-noyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar - noyabr oylarida Farg'ona viloyatida jami **3 710,9 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o'sish sur`ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **117,0 %** ni tashkil etdi.



486,0
mlrd.so'm

- Yirik qurilish tashkilotlari

2 299,7
mlrd.so'm

- Kichik korhona va mikrofirmalar

925,2
mlrd.so'm

- Norasmiy sektorlar

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **486,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **2,5** martaga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **13,1%** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **7,0 %** punktga ko'paygan.

Kichik korhona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,0 %**i to`g`ri kelib, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **118,2 %**ni tashkil etgan holda **2 299,7** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan - **7,6 %** punktga kamayib, **24,9 %**ni tashkil etdi va **925,2** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **89,2 %**ni tashkil etgani kuzatildi.


Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-noyabr)


Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **205,0** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **5,5%** ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **3 505,9** mlrd.so'm ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **94,5%** ni tashkil etdi.




Davlat mulki




Nodavlat mulki



Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **7,8 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,6 %** punktga ko'paygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga ko'payib, **59,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **-8,4 %** punktga kamayib **32,9 %** ni tashkil etdi.



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **7,8 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,6 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **59,3 %** (**1,8 %** punktga ko'paydi) va norasmiy sektoring ulushi **32,9 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan - **8,4 %** punktga kamaydi.



Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **32,4 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **18,6 %** punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **66,3 %** (- 12,6 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **1,3 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan - **5,9 %** punktga kamaygan.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **25,9 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan - **3,4 %** punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **74,1 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,4 %** punktga ko'paygani kuzatildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-noyabr (mlrd, so'm)	2019 yil yanvar-noyabr (mlrd, so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
Viloyat bo'yicha jami:		2 669,1	3 710,9	117,0	100,0
1	Farg'ona shahar	575,1	788,3	115,4	21,2
2	Qo'qon shahar	289,3	344,6	100,3	9,3
3	Quvasoy shahar	206,4	289,3	118,0	7,8
4	Marg'ilon shahar	198,6	315,8	133,9	8,5
5	Oltiariq tumani	98,6	141,9	120,9	3,8
6	Qo'shtepa tumani	110,6	164,0	124,3	4,4
7	Bag'dod tumani	141,9	174,3	103,5	4,7
8	Buvayda tumani	79,6	99,7	105,2	2,7
9	Beshariq tumani	90,2	274,3	255,9	7,4
10	Quva tumani	116,0	160,0	115,8	4,3
11	Uchko'prik tumani	121,8	130,0	89,9	3,5
12	Rishton tumani	54,1	66,9	104,0	1,8
13	So'x tumani	39,4	47,8	102,0	1,3
14	Toshloq tumani	68,8	86,3	105,5	2,3
15	O'zbekiston tumani	45,9	74,8	137,1	2,0
16	Farg'ona tumani	199,8	75,1	31,7	2,0
17	Dang'ara tumani	116,5	207,4	149,3	5,6
18	Furqat tumani	83,0	123,8	124,9	3,4
19	Yozyovon tumani	33,5	146,6	369,3	4,0

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi


(jamiga nisbatan, % da)



O'z kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori hissasi Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining **21,2 %** ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida **9,3%** ni, Marg'ilon shahrida **8,6%**, Quvasoy shahrida **7,8%**ni tashkil etdi. Shu bilan birga Beshariq tumanida **7,4%**, Dang'ara tumanida **4,0%**, Bag'dod tumanida **4,7%**, Qo'shtepa tumanida **4,4%**, Quva tumanida esa **4,3%**, Yozyovon tumanida **4,0%**ni tashkil etdi. Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmida hissasi kam bo'lgan tumanlar xususan, So'x tumanida jami qurilish ishlari hajmining **1,3 %**, Rishton tumanida **1,8%** ni, hamda O'zbekiston tumanida **2,0 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hudular bo'yicha ko`radigan bo`lsak joriy davrda qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori hissasi viloyatning Yozyovon tumanida **3,7 m** ga ko`payib, jami qurilish ishlari hajmining **4,0 %** ni tashkil qildi. Beshariq tumanida **2,5** marttani tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **7,4 %** ni, Dang'ara tumanida **149,3 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **5,6 %** ni, Oltiariq tumanida **120,9 %**ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,8 %** ni, Furqat tumanida **124,9 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,4 %** ni, Quva tumanida **115,8 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **4,3 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, Farg'ona shahrida o'sish sur'ati **115,4%** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **21,2 %** ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida o'sish sur'ati **100,3 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **9,3 %** ni tashkil etdi. Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati **133,9 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,5 %** ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida **118,0 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **7,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari tarkibi
(jamiga nisbatan %da)

	Yirik pudrat tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jami viloyat	13,1	62,0	24,9
Farg`ona sh.	10,0	74,5	15,5
Qo'qon sh.	32,8	53,3	13,9
Quvasoy sh.	2,6	87,8	9,7
Marg`ilon sh.	0,1	77,0	22,9
Oltiariq	0,4	63,1	36,5
Qo'shtepa	0,3	44,5	55,3
Bag`dod	5,7	84,6	9,7
Buvayda	1,3	59,0	39,7
Beshariq	68,5	11,2	20,2
Quva	0,5	52,5	47,1
Uchko'prik	2,4	86,3	11,3
Rishton	0,9	63,1	36,0
So'x	1,0	74,5	24,5
Toshloq	0,7	59,7	39,5
O'zbekiston	0,6	70,6	28,7
Farg`ona t	10,1	78,9	11,0
Dang`ara	5,2	40,4	54,4
Furqat	0,2	35,4	64,4
Yozyovon	42,1	45,4	12,6


Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
"Investitsiyalar va qurilish statistikasi" bo'limi
Nashr uchun mas'ul: O'.Umarov
Aloqa telefoni: (73) 241-98-42